

## **O'smirlarda Xotiraning Neyrodinamik Asoslari.**

**Mamajonova Xurshida Qosimjon qizi**  
**Xalqaro Nordik universiteti**  
**“Iqtisodiyot va Pedagogika” fakulteti dekan muovini**  
**x.mamajanova@nordicuniversity.org**  
**+99899-898-04-47**

**Mavzuning dolzarbligi:** Insonning bilish faoliyati jarayonida sezgi va idroklarga, xotira va tasavvurlarga nisbatan tafakkur alohida ahamiyat kasb etadi. Tafakkur orqali inson o'z xotirasi, idroki va tasavvuri asosida fikrlarining to'g'riligi va haqqoniyligini belgilaydi.

Masalan, biz har kuni quyoshning sharqdan chiqib, g'arbga botayotganligini kuzatamiz. Biroq, tafakkur va ilmiy tadqiqotlar orqali haqiqatan ham Yerning Quyosh atrofida aylanishi aniqlandi. Demak, idrok jarayonida hosil bo'lgan xulosalar har doim ham voqelikni to'g'ri aks ettirmasligi mumkin. Shuning uchun tafakkur orqali inson idroki va xotiraning to'g'riligini tekshirishi zarur.

Inson atrofidagi olamdagi voqelikni ongli ravishda idrok qiladi, esda saqlaydi va kerak bo'lganda esga tushiradi. Shu sababli xotiraning neyrodinamik asoslarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur kurs ishining mavzusi sifatida **“O'smirlarda xotiraning neyrodinamik asoslari”** tanlandi.

Mavzuning maqsadi

O'smirlarda xotiraning rivojlanishining samarali shakl va metodlarini aniqlash.

Mavzuning obyeksi

O'smirlarda xotiraning rivojlanish jarayoni.

Mavzuning predmeti

O'smirlarda xotiraning boshqa psixik jarayonlar bilan bog'liqligi.

Mavzuning vazifalari

- Xotiraning boshqa bilish jarayonlari bilan bog'liqligini aniqlash va tahlil qilish.
- Tadqiqot natijasida to'plangan materiallarni umumlashtirish.

- Xotiraning boshqa bilish jarayonlari bilan aloqasida yuzaga keladigan o'zgarishlarni aniqlash.

## Metodlar

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish.
- Psixologik kuzatuv.
- Suhbat va anketa so'rovi.
- Psixologik tajribalar.
- Matematik-statistik metodlar.

## Metodologik asoslar

Tadqiqotning metodologik asoslari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi hukumatining ta'lim sohasidagi qaror va me'yoriy hujjatlari.
- Pedagogika, psixologiya va metodika bo'yicha xorijiy tajribalar va nazariyalar.
- Respublika olimlarining qarashlari va ilgari surilgan g'oyalari.

## Ilmiy faraz

O'quvchilarda tafakkur va xotiraning rivojlanishini tahlil qilib o'rganish quyidagilarga imkon yaratadi:

- Xotiraning rivojlanishini tahlil qilish uchun maqbul shakl, metod va vositalarni ishlab chiqish.
- O'quvchilarda tafakkur va xotiraning rivojlanishini samarali usullarda qo'llash.

## Xotira xususiyatlari va uning ahamiyati

Xotira – inson ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarini yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki qayta tiklash jarayonidir. Xotira inson tajribasini shakllantirish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Shaxsning yo'nalishi uning qiziqishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu qiziqishlar xotira jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Odam o'ziga qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarni yaxshi esda saqlaydi, qiziqishi past bo'lgan ma'lumotlar esa tez unutiladi. Masalan, o'quvchilar barcha fanlarni bir xil darajada o'zlashtirmasliklari, ularning qiziqishlarining har xil ekanligi bilan izohlanadi.

Xotira shaxsning irodaviy sifatlariga ham bog‘liqdir. Irodasiz, ishyoqmas shaxslar yomon xotiraga ega bo‘lsa, aksincha, irodali va bilim olishga intiladigan shaxslar puxta xotiraga ega bo‘ladilar.

Xotira jarayonida quyidagi asosiy bosqichlar ajratiladi:

1. **Esda olib qolish** – yangi ma'lumotlarni yodda saqlash jarayoni.
2. **Esda saqlash** – olingan ma'lumotlarni uzoq muddat eslab qolish.
3. **Esga tushirish** – oldin olingan ma'lumotlarni qayta tiklash.
4. **Unutish** – ma'lum materialning faoliyatda ishlatilmay qolishi natijasida yoddan chiqishi.

Xotiraning samaradorligi insonning umumiy madaniyati, aqliy qobiliyati va o‘qish faoliyatiga bog‘liq. Shu sababli, xotirani rivojlantirish uchun maxsus metodlar va usullar ishlab chiqish lozim.

Mazkur tadqiqot o‘smirlarda xotiraning neyrodinamik asoslarini chuqur o‘rganish hamda ularning bilish jarayonlariga ta’sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, olingan natijalar kelgusidagi ilmiy izlanishlarga zamin yaratadi.